

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



TABIIY FANLAR
NATURAL SCIENCES

O‘SIMLIKLARNI MUHOFAZA QILISHDA “QIZIL KITOB”NING O‘RNI

Axmedova Gulziraxon Otabek qizi

Biologiya yo‘nalishi talabasi

Toshpulatova Dilraxon Sobirjonovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

dilyatoshpulatova6@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada o‘simlik dunyosini muhofaza qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi me‘yoriy hujjatlar va o‘simliklarni muhofaza etish chora - tadbirlari, o‘simlik dunyosini muhofaza etishda “Qizil kitob”ning o‘rni, Farg‘ona vodiysidagi mavjud muhofaza etiladigan o‘simliklar turlari bo‘yicha statistika haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: muhofaza, karantin, “Qizil kitob”, flora, genafond, takson, qo‘riqxonlar, buyurtmaxona.

Аннотация В статье приведены сведения о нормативных документах и мерах защиты растений в законодательстве Республики Узбекистан об охране растительного мира, роль «Красной книги» в охране растительного мира, статистические данные о существующих охраняемых видах растений в Ферганской долине.

Ключевые слова: охрана, карантин, «Красная книга», флора, генофонд, таксон, заповедники.

Annotation The article provides information on regulatory documents and plant protection measures in the legislation of the Republic of Uzbekistan on the protection of flora, the role of the "Red Book" in the protection of flora, statistical data on existing protected plant species in the Fergana Valley

Key words: protection, quarantine, “Red Book”, flora, gene pool, taxon, reserves.

KIRISH

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz ekologik muhitini yaxshilash maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirish bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Darhaqiqat 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni mazkur sohada amalga oshiriladigan ishlar aniq belgilab berildi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasini kengaytirish, xususan, har yili 200 million tup daraxt ekib borish va respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, ekiladigan har bir daraxtni

parvarish qilish va sug‘orish tizimini yaratish ko‘zda tutilgan. Birgina Toshkent shahrida yashil maydonlar hududini 5 barobar ko‘paytirib, 5 ming gektarga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek aynan 2024-yilgi Davlat dasturida loyiha doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish, respublikada 444 ta yashil bog‘lar barpo etish belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Atrof-muhitni, o‘simliklar olamini muhofaza qilish insoniyat uchun juda katta hayotiy ahamiyatga ega. Insoniyat tabiatdan foydalanar ekan, uning asrlar davomida shakllangan tabiiy manzarasini o‘zgartirmoqda, unga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Sanoat tarmoqlariva qishloq ho‘jaligining rivojlanib borishi, tabiiy maydonlarning keng miqyosda o‘zlashtirilishi ekologik muvozanat buzilishiga olib kelmoqda. Natijada o‘simliklar turning kamayib ketish xavfi ortib bormoqda. Bu esa o‘simliklar dunyosi genofondining qisqarishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘simlik dunyosini muhofaza qilishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi qoidalarni, o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanish normalari va normativlarini belgilash;

- o‘simlik dunyosi obyektlaridan foydalanishda cheklovlar va taqiqlar belgilash; o‘simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish huquqini to‘xtatib turish, tugatish, bekor qilish;

- o‘simlik dunyosi obyektlaridan o‘zboshimchalik bilan foydalanishning va ulardan foydalanish borasida belgilangan tartibning boshqa buzilishlarining oldini olish; o‘simlik dunyosi o‘sadigan muhitning muhofaza qilinishini tashkil etish;

- kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi holda o‘svuchi o‘simliklar turlarini O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob”iga kiritish; xo‘jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida o‘simlik dunyosiga zararli ta‘sir ko‘rsatilishining yoki uning yo‘q qilib yuborilishining oldini olish;

- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va rivojlantirish; botanika bog‘larini va dendrologiya bog‘larini tashkil etish;

- yovvoyi holda o‘svuchi o‘simliklarni sun‘iy yaratilgan sharoitlarda yetishtirish;

- o‘simlik dunyosini himoya qilish, karantindagi va boshqa xavfli zararkunandalarni, o‘simliklar kasalliklarini va begona o‘tlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda yo‘q qilish bo‘yicha karantin tadbirlarini o‘tkazish;

- o‘simlik dunyosi obyektlarini davlat hisobiga olish va ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish;

- o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini yuritish hamda o‘simlik dunyosi monitoringini amalga oshirish; o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida nazoratni amalga oshirish; o‘simlik dunyosi obyektlarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqishni tartibga solish; o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish hamda o‘tkazish;

- o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish;

- o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish bo‘yicha biotexnik va boshqa tadbirlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston “Qizil kitob”i ilk bor 1979-yilda ta’sis etilgan. Mazkur “Qizil kitob”ga hayonot va o‘simlik olamining kamyob, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan, bundan ko‘zlangan maqsad jamoatchilik va davlat idoralari e’tiborini tabiat muhofazasi masalalariga jalb etishdan va turlarni genefondini saqlab qolishga ko‘maklashishdan iborat edi. “Qizil kitob” O‘zbekistonda birinchi 1984-yilda nashr qilingan va bu nashrida O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan 163 ta tur kiritilgan.

Keyingi nashrida quyidagi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin:

2 – nashri 1998 yilda nashr qilingan, 301 ta o‘simlik turlari kiritilgan;

3 – nashri 2006 yilda nashr qilingan, 305 ta o‘simlik turlari kiritilgan;

4 – nashri 2009 yilda nashr qilingan, 321 ta o‘simlik turlari kiritilgan;

5 – nashri 2019 yilda nashr qilingan, 314 ta o‘simlik turlari kiritilgan.

O‘tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o‘simliklar turlarining soni va maydonini ancha kengayganligini ko‘rsatmoqda. Masalan: anzur va Suvorov piyozlari oldingi yillarga nisbatan ma’lum darajada ko‘paydi. Qurama tizmasida kamyob o‘simliklardan hisoblangan Korovin shirachi o‘simligining mavjudligi aniqlandi.

“Qizil kitob”da har bir turning o‘zbekcha, ruscha, lotincha nomlari va ularning qaysi oila hamda turkumga mansubligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, turlarning qisqacha tavsifi (hayotiy shakl bo‘yi, shox - shabbasi, bargi, guli, mevasi va fenologiyasi), tarqalishi va chizma xaritada uchraydigan joylari keltirilgan. Tabiiy sharoitda o‘stirish usullariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Ba’zi o‘rinlarda muayyan turni tajriba maydonlarida yoki sanoat asosida yetishtirish imkoniyatlari bayon etilgan. Muhofaza choralari masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Turlarga tavsiv berilar ekan, sohaga doir adabiyotlar va gerbariyalar ma’lumotlaridan, shuningdek, ko‘p yillik kuzatishlar natijalaridan ham foydalanilgan. O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Botanika instituti ilmiy xodimlarining keyingi yillar ichida viloyatlar bo‘yicha olib borilgan ilmiy- tadqiqot ishlarining samarasi o‘laroq, “Qizil kitob”ning avvalgi nashridagi ma’lumotlar yangilandi, ya’ni, “Qizil kitob”ning yangi nashriga ayrim o‘zgarishlar kiritildi. Jumladan, O‘zbekistonda kam uchrashi, tarqalish hududlari, ya’ni areallari, asosan boshqa mamlakatlar (Rosiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, va boshqalar)ga to‘g‘ri kelganligi sababli, ayrim o‘simlik turlari “Qizil kitob”dan chiqarib tashlandi. Shuningdek, avvalgi nashr chop etilganidan beri nomenklaturaga kiritilgan ko‘p sonli o‘zgarishlar tufayli, shu jumladan DNK -tahlillash usulidan keng foydalanilishi munosabati bilan uzoq vaqt davomida maxsus adabiyotlarda qo‘llanib kelingan taksonlar [turlar, turkumlar, oilalar]ning ilmiy nomlari ham o‘zgardi.

“Qizil kitob”ning mazkur yangi nashri mutaxassislar, davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlari oldiga qo‘riqxonlar va buyurtmaxonalrni keng aytirish, yovvoyi o‘simliklar sotishni taqiqlash, homashyo uchun yig‘iladigan o‘simliklarni terish uchun liytsenziyalar joriy etish kabi

bir qancha dolzarb masalalarni qo‘yadi. O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish bu jarayonda keng jamoatchilik ishtirok etgandagina ijobiy samara beradi. Barcha yakdillik bilan harakat qilsagina, nabotot olamining bebaho boyliklarini saqlab qolishga, ularni asrab-avaylab, munosib ravishda kelgusi avlodga qoldirishga erisha olamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg‘ona vodiysi o‘zining noyob biologik xilma-xilligi bn ajralib turadi. Ushbu hududda ko‘plab kamyob va endemik o‘simlik va hayvonot turlari mavjud bo‘lib, ular asosan tog‘lar, cho‘l va vodiyning o‘ziga xos iqlimida rivojlanadi. Farg‘ona vodiysining florasida O‘zbekistonning eng boy va xilma-xil florasidan biri hisoblanadi. Hududning tog‘li, cho‘l va vodiyning nam iqlimi tufayli o‘simlik turlari juda ko‘p. Bu yerda kamyob va endemik o‘simliklar uchraydi, ulardan ayrimlari xalqaro muhofazaga olingan.

Quyida “Qizil kitob”ning 2019 yilgi nashriga ko‘ra vodiylar viloyatlari bo‘yicha o‘simlik turlari statistik tahlil qilindi:

№	O‘simlik nomi	Andijon	Namangan	Farg‘ona
1	Knopping isfaragi	-	-	+
2	Olga inkarvilleyasi	-	-	+
3	Boris astragali	-	-	+
4	Zarhal astragal	-	-	+
5	Ikkirangli astragal	-	-	+
6	Yulingan astragal	-	-	+
7	Qizgish astragal	-	-	+
8	Janubiy farg‘ona astragali	-	-	+
9	Vinkler gulsafsari	-	+	-
10	Mayda mevali dorema	-	+	+
11	Korjinskiyi kovragi	-	-	+
12	Xolmon isirg‘aguli	-	-	+
13	O‘rinbosar kavragi	-	-	+
14	Fedchenko pildiroqmevasi	-	-	+
15	Sariq qirrgul	-	-	+
16	Oloy hiyoli	-	-	+
17	Farg‘ona lolasi	-	-	+
18	Kaufman lolasi	-	+	-

19	Chipor lola	-	+	-
20	Sharipov lolasi	-	+	-
21	Oraliq lola	-	+	-
22	Nozik qandim	-	-	+

Ko‘rinib turibdiki, juda ko‘p turlar Farg‘ona viloyatida joylashgan. Demak viloyatimiz hududida keng qamrovli tadqiqot ishlar va muhofaza qilinadigan hududlarni kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSA

O‘simliklarni himoya qilish yuzasidan ham hukumat tomonidan ko‘plab me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Respublikamizda o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish konstitutsiyaviy normalar bilan bir qatorda “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 2014yil 20-oktabrdagi 290-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish va tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o‘tish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan Konstitutsiyamizning 68-moddasiga asosan yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

Shu jumladan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 5-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma‘qullangan “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimiz hududida o‘simlik dunyosini rivojlantirish, aholiga qulay atrof-muhit sharoitini yaratishda o‘simlik dunyosi obyektlarini har tomonlama muhofaza etish, shu jumladan o‘simlik dunyosi obyektlari deb e‘tirof etilgan hududlardan iqtisodiy maqsadlarda foydalanish (ularni dorivor o‘simlik sifatida qayta yetishtirishdan tashqari)ni taqiqlash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 21.09.2016 yildagi O‘RQ-409-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni. 2023-yil 11-sentabr
4. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, 1 jild: O‘simliklar; F.O‘.Husanovning umumiy tahriri ostida.- T.: “Chinor ENK” ekologik noshirlik kompaniyasi, 2019.
4. Haydarov K., Xojimatov K. O‘zbekiston o‘simliklari. - Toshkent, O‘qituvchi, 1992. - B. 25-31.
5. Mustafoyev.S.M., Botanika. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. 409-411 bet.
6. Prator.O.P., Nabiev.M.M., O‘zbekiston yuksak o‘simliklarining zamonaviy tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
7. Raximova T.T. O‘simliklar ekologiyasi va fitotsenologiya. – Toshkent, 2009. 43-46 bet.
8. Жизнь растений. В 6-и т. Т. 5. Часть вторая. – Москва: Просвещение, 1981. – С. 135-141.